ZAMONAVIY JAMIYAT

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

San’atshunoslik fakulteti stajyori o‘qituvchisi

Ilmiy rahbar: Eshmuratov Ajiniyaz Allamuratovich

Madaniyatshunoslik yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Jiemuratova Jamshira Qalliqoraz qizi

Annotatsiya :

Bu maqolada jamiyatdagi ro’y berayotkan madaniy hodisalar haqidagi agrar jamiyat va zamonaviy jamiyatning o’zaro farqliy jihatlari haqida so’z boradi. Moslashuv, himoya mexanizmlari yoritib berilgan. Shaxsning ikkilamchi kasbiy faoliyatga ijtimoiy-psixologik moslashuvi mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so’zlar : Zamonaviy jamiyat, Mexanizm, Madaniy hodisalar.

Hammaga ma’lumki internet tarmoqlarining rivojlanishi madaniyatimizga turmush tarzimizga katta ta’sirini ko’rsatmoqda.Shu bilan birga zamonaviy jamiyatda agrar jamiyatga qaraganda ilm – fa’nga asoslangan bo’ladi shu bilan bir qatorda ilm – fa’n ham bir qator yuqori muvofaqqiyatlarga erishmoqda. Yangi mexanizmlarning kirib kelishi ta’lim sohasida su’niy intellektlarning joriy qilinishi shular jumlsidan.

Muammoli vaziyatlarda, moslashuv konstruktiv mexanizmlar (anglash jarayoni, maqsadga intilish, maqsadning qo‘yilishi, konform xulq-atvor) orqali amalga oshiriladi. Bir qator ijtimoiypsixologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ichki va tashqi to‘siqlardagi vaziyatlarda, moslashuv, himoya mexanizmlari (rad qilish,

reaksiyani shakllantirish, aniqlashtirish, identifikatsiya, bosim oʻtkazish, yumor va hokazo) orqali amalga oshiriladi. Tahlillarga qaraganda, konstruktiv mexanizmlar ijtimoiy hayot sharoitlarini adekvat holda vaziyatni baholash, voqeliklarni analiz, sintez va prognoz qilish, faoliyat oqibatlarini anglash imkoniyatlari orqali bilishga yordam beradi. Mutaxassislar ikkilamchi kasbiy mehnatga moslashishning psixologik asoslarini tadqiq etishar ekan, insonni oʻrab turgan muhit bilan oʻzaro faol tarzda munosabatga kirishishida moslashuv jarayoni sodir boʻladi, degan umumiy xulosaga kelishadi. Fikrimizcha, bozor munosabatlariga kirishayotgan paytda, tadbirkorlarning yangi (ikkilamchi) mehnat (kasbiy) faoliyatiga kirishishi, ularning organizm va psixikalarining moslashuviga nisbatan oʻzlari oʻrganmagan tashqi va ichki mehnat omillariga qarshi reaksiyani namoyon etishi mumkin.

Resotsializatsiya jarayonida tadbirkorlardagi kasbiy ustanovkalar shakllanishini «oʻzini-oʻzi anglash konsepsiyasi» nuqtai nazaridan oʻrganish maqsadga muvofiq sanaladi hamda uning asosida ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan qadriyatlar inson ontogenezi davomida shaxs tomonidan jamiyatdagi mavjud normativlar, ustanovkalar orqali oʻzlashtirilishi va ushbu qadriyatlarni anglash esa oʻzini-oʻzi anglash jarayoni orqali amalga oshishi g`oyasi yotadi. Adabiyotlar tahliliga asoslanilganda, ya’ni bozor munosabatlarida ijtimoiylashuv tushunchasi inson shaxsining vaziyatga faol moslashuvi va individuallashuvi jarayonlarini oʻzaro bir-biri bilan bog`laydi: bozor munosabatlariga asoslanadigan jamiyat sharoitlariga tadbirkorlarning faol moslashuvi yoki undan ajralib chiqishi ijtimoiylashuv jarayonini mazmunini tashkil qiladi. Shu bois, moslashuvni – subyekt va ijtimoiy muhitning oʻzaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir, deb ta`riflash maqsadga muvofiq sanaladi.

Jamiyatni har tomonlama modernizatsiya qilish, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga oʻtish tamoyillarini asoslab beradi.[1]

"Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir", degan tamoyil asosida barkamol avlodni tarbiyalash va milliy qadriyatlarni yuksaltirishga urg‘u beriladi.[2]

To’g’ri, tarbiya, madaniyat kabi jarayonlarda bizning qarashlarimiz ancha yaxshi bo’lishi mumkun. G’arbda “Ommaviy madaniyat” deya atalib axloqiy qarashlardan ancha yiroq holatlar borligini inkor eta olmaymiz. Ammo,birgina yomon bo’lim butun hikoyaning yomonligini anglatmaydi deganlaridek,ularning ham ba’zi foydali ishlaridan o’zimiz uchun kerakli jihatlarni topishimiz zarur. Ya’ni ikkita qit’a orasida axloqiy chegaralarni saqlagan holda, bizdan ko’ra ilg’orroq bo’lgan jihatlarini o’zlashtirishimiz va sekin asta ulardanda ilgarilab ketishimiz darkor. Axir, fikr fikrdan quvvat oladi degan so’z bejiz aytilmaganku.

Xulosa qilib aytganda Zamonaviy tafakkur esa o’zi jahon standartlariga molik narsa yarata olish jarayoni hisoblanadi. Bugun esa biz zamonaviy yoshlar tafakkurimizni ijobiy jihatlarga o’zgartirib borishimiz zarur. Birinchi prezident ta’kidlaganlaridek: “Tafakkurni o’zgartirmasdan turib ko’zlangan oliy maqsadlarga erisha olmaymiz”. Hozirgi zamonda Rossiya, Xitoy kabi qator mamlakatlarda innovatsion tafakkur asosida darslar o’tilmoqda. Bugun har jihatdan g’oyaviy yangiliklar, raqamli texnologiyalar eng asosiysi esa rivojlangan davlatni barpo etish uchun yangi, keng qamrovli bilimlarga ega bo’lishimiz va bunga bor kuchimiz bilan harakat qilishimiz darkor. Zero,tafakkur rivojlangan sayin jamiyat ham rivoj topib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Shavkat Mirziyoyev - Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi :
2. Islom Karimov. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat ,mafkura. 1 jild.1996-yil. 275-bet.

3. Выготский Л. С. Мышление и речь. - Москва: Педагогика, 1982. - 287 с.

4. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. - Москва: Просвещение, 1991. - 93 с.

5. Пиаже Ж. Психология интеллекта. - Санкт-Петербург: Питер, 2003. - 192 с